



## ADABIYOTDA XUSUSAN CHO'LPON IJODIDA KLEOPATRA TIMSOLI

**Yorbulova Dildora Shokir qizi**

Toshkent viloyati Chirchiq pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti 2-kurs talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10004703>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-October 2023 yil  
Ma'qullandi: 08- October 2023 yil  
Nashr qilindi: 14- October 2023 yil

### KEY WORDS

*badiiy talqin, tarixiy shaxs, Kleopatra, fir'avn, Makedoniya, Midiya, Parfiyalik, Yahudiylar, Arablar, Suriyaliklar, Tragediya, Efiopiya, Plutrax, johillik, tarixiy shaxslar, johillik, romantik sevgi, ramziy, obraz, epik, dramatik, tabiiy unsurlar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada tarixiy shaxs, Misr malikasi va fir'avni hisoblangan Kleopatra timsolining adabiyotga tabdili, jadid adabiyoti yorqin vakili hisoblangan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon kichik nasriy asarlaridan biri "Kleopatra" hikoyasi tahlili berilgan.*

Tarixga nazar tashlasak ayrim siymolar tarix varaqlariga o'z ismlarini mustahkam qilib yozib qo'yishgan. Ularni esa adabiyotda badiiy talqin vositasida tilga olamiz. Ularning nomlarini adabiyot bilan bog'lash ular haqidagi bilimlarni mustahkamlashga va abadiylashtirishga imkon beradi. Adabiyotimizga daxldor bunday tarixiy shaxslardan biri ikki ming yil muqaddam yashagan Misr malikasi Kleopatra.

"Kleopatra miloddan avvalgi 69-yillardan milodgacha 30-yilgacha yashagan. Misr malikasi va fir'avni. Makedoniya sulolasining so'nggi fir'avni bo'lib, u Misrni boshqargan edi. Kleopatra ko'plab mahalliy tillarda gapirishni o'rgangan. Jumladan, yunoncha (ona tili), Midiya, Parfiyalik, Yahudiylar, Arablar, Suriyaliklar, Tragediya, Efiopiya davlatlarning tillarini mukammal bilgan. Uning tashqi ko'rinishi va ichki dunyosi haqida tarixchi olimlar ko'p so'z yuritadi. Yunon tarixchisi Plutrax Kleopatrani quyidagicha ta'riflagan:

"Kleopatra juda ham ayol bo'lmasa ham odamni o'ziga maftun qiladigan darajadagi yaxshi suhbatdosh edi. Uning ovozi mayin bo'lib, suhbatdoshining qalbida mehr-muhabbat uyg'otadi"<sup>1</sup>. Kleopatra insonning tashqi qiyofasi emas, balki ichki dunyosi boy bo'lishining yorqin namunasidir. Ma'naviy dunyosi boy bo'lgan odam har qanday insonni o'ziga maftun eta olishni Kleopatra yana bir bora isbotladi. Kleopatra o'tmishdan to hozirgacha sevgi va muhabbat timsoli bo'lib kelgan. "Kleopatra asarlarda sevgi, ishq-muhabbat kabi tuyg'ularni

<sup>1</sup> <https://darakchi.uz/oz/30307>

vosita qilib ham baxtga, ham taxtga erishmoqchi bo'ladi. Bunday mushkul vazifani uddalaydi. Umri davomida shunday ishlarni amalga oshiradi"<sup>2</sup>

Jahon adabiyotida Kleopatra timsoli Plutrax va Svetoniy kabi tadqiqotchilar, shuningdek Shekspirning eng mashhur asari "Antoniy va Kleopatra" asarini misol keltirishimiz mumkin. Bu asarda fojia chiziqlari Antoniy va Kleopatra misolida namoyon etiladi. O'zbek adabiyotida ham jahon adabiyoti vakillarini ijod namunalari qo'llab, jahon adabiyoti va o'zbek adabiyotini uyg'un ravishda tasvirlash har bir yozuvchi mahoratidan darak beradi. Xususan go'zallik, vafo, sadoqat bu kabi tuyg'ularga qarama-qarshi ravishda johillik, yovuzlik timsoli sifatida tarixiy shaxslar, podshohlar, ma'lum davlat amaldorlari siymosi asarlarga hamohang ravishda tasvirlanadi. 1921-yilda jaded adabiyoti tarixida Kleopatra nomi bilan bog'liq asar vujudga keldi. Bu asar muallifi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon. "Kleopatra" Cho'lponning kichik nasriy asarlaridan biridir. Bu hikoya 1923-yilda e'lon qilingan bo'lsada, aslida 1921-yilda yozilgan. Yozuvchi aynan shu vaqtda "Kleopatra uyqusi" nomli she'rini chiqardi. O'zining hikoyasini esa aynan shu she'rni sochma hikoyaning tizma shakli deb aytib o'tdi. "Kleopatra" hikoyasi inqilobdan so'nggi dastlabki hikoya.

"Hikoyani nozik tahlil qilgan N.Vladimirova undagi ramzlar ostida botin ma'nolarni talqin qilib, mazmuni zamona bilan, adib ruxiyati bilan bog'laydi. Olimning ta'kidlashicha, hikoyadagi "yo'l ayrilishida qolgan odam obrazi ham ramziy, ham xarakterlidir". Taqdiri goh hokimiyatning yovuz kuchlariga goh tabiatning o'jar dalg'alariga bog'liq bo'lgan inson haqidagi Cho'lponning o'y-fikrlari, shubhasiz, zamonasining voqeligi bilan bog'langan"<sup>3</sup>

Haqiqatan ham hikoyaga mazmun-mohiyati yozuvchi ruhiyati bilan bevosita bog'liq. Hikoyani yozyotgan Cho'lpon barcha joyda adolat qidirib charchagan, ayni davrdagi muxtoriyat bilan bog'liq umidlarining parchalanishi hikoyada badiiy talqiniga ko'chadi. Adib reallikdan qoniqmasdan, unga isyon qiladi. Cho'lpon o'zi yashab turgan jamiyatdan norozi, buni esa u o'z asariga ko'chiradi. U isyon to'la qalbga go'zallikni esa o'tmishdan qidiradi. Qadimiy Misr o'lkasida Cho'lpon istagini qondirishga mo'romantic xarakterga esa obraz bor edi. Bu obraz Misr afsonaviy malikasi va fir'avni Kleopatra edi. Cho'lpon uni ta'rif etishdan avval Nilni, Misrni beqiyos ravishda tavsif etadi. Misrni: "Misr — u sirlar va yashirinliklar uyasi bo'lg'on Misr o'zining butun go'zalliklari bilan birga uxlar edi. Qator-qator falloh qishloqlari, qator-qator ehromlari, qator-qator abulhavllari, xavfdan titrab turg'on bani Isroilg'a maxsus ma'budlari bilan birga uxlar edi"<sup>4</sup> deya ta'riflaydi. Cho'lpon ruhiyatidagi makon va zamon tushunchasi endi butunlay Misrga ko'chadi. Xayolot dunyosidagi turfa tasvirlar romantic ohang bilan sayqallanadi. "Romantiklar kabi Cho'lpon ham kundalik hayotdagi tubanlik, siyqallashgan insoniy munosabatlari hislariga oliy tuyg'ularni – romantik sevgiga sadoqatni qarshi qo'yadi. Cho'lpon talqinidagi sevgi inson xayoloti imkoni darajasidagi mutlaqlashtirilgan, tog' chashmasidek musaffo ilohiy bir qudratga egadirki, u nainki odamni, olamni-da o'zgartirishga qodir"<sup>5</sup>

<sup>2</sup> Abdulla She'r, Bahodir Xusanov. Estetika, T.:O'zbekiston.

<sup>3</sup> O'zbek tili va adabiyoti – 1992. – N2. – B.10

<sup>4</sup> Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon. Qor qo'ynida lola, T.:Ziyo nashr, 2019

<sup>5</sup> Dilmurod Quronov. Cho'lpon nasr poetikasi, T.:Sharq, 2004

Cho'lpon sevgini boshqacha ta'riflaydi "sevgini ko'ngilga sevgi hidi, bilmadim, qanday xush keldi". Hikoyda nuhabbatga tashna, mehrga zor Kleopatra tasvirlanadi. Cheksiz hokimiyatdan to'yingan Kleopatra o'zini sevilishiga ishonmaydi. Hikoya davomida musofir o'zgacha holatga tushadi. U go'zallik timsoli bo'lgan Kleopatra qarshisida turib ham boshqalarni suyish haqida o'ylaydi. Musofir turli ramzlar bilan ifodalanadi. Yozuvchi muhabbat taftini Nilda emas, Amuda uchratganini aytadi.

Hikoya butkul romantizm adabiyotiga misol bo'lishi mumkin. Uning mazmun-mohiyatida inson qadrini ulug'lash kabi betakror sayqallanish turadi. "Romantizmga xos belgilarni "Kleopatra"ning ifoda yo'sinida ham ko'rish mumkin. Romantizm adabiyotida badiiy obrazning assotsiativligi, ramziy-majoziyligi benihoya ortgandiki, Cho'lpon hikoyasida ham bu holning kuzatilishiga amin bo'lish uchun N.Vladimirovaning yuqorida eslatilgan maqolasini bir sidra ko'zdan kechirish kifoyadir. Romantiklar, ma'lumki, ijod jarayonida ham o'zlarini erkin tutganlar. Ular, klassitsizm vakillaridan farq qilaroq, adabiy turlar orasiga, janrlar orasiga xitoy devori qo'ymaganlar. "Kleopatra"da ham o'shanday erkinlik kuzatiladi: unda lirik, epik va dramatic unsurlarning betakror, tabiiy uyg'unligi ko'zga tashlanadi"<sup>6</sup> Cho'lponning "Kleopatra" hikoyasi shaxs erkini kuylovchi romantik asarlardan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla She'r, Bahodir Xusanov. Estetika, T.:O'zbekiston.
2. O'zbek tili va adabiyoti – 1992. – N2. – B.10
3. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon. Qor qo'ynida lola, T.:Ziyo nashr, 2019
4. Dilmurod Quronov. Cho'lpon nasr poetikasi, T.:Sharq, 2004
5. <https://darakchi.uz/oz/30307>
6. <https://uz.eferrit.com/kleopatra/>

INNOVATIVE  
ACADEMY

<sup>6</sup> Dilmurod Quronov. Cho'lpon nasr poetikasi, T.:Sharq, 2004